

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG SHE'RIYATIDA MUHABBAT VA AYRILIQ FALSAFASI ("SUZAYAP,MUHABBAT,OLIS" SHE'RI TAHLILI)

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg(1939-2009) o'zbek she'riyat osmonining yorqin yulduzi,o'ziga xos lirizm,samimiylik,o'quvchi qalbiga yaqin falsafiylik bilan ko'plab asarlar yaratib ,yuz minglab kitobxonlar qalbidan chuqur joy egallagan atoqli arbob.Uning asarlarida inson qalbiga xos bo'lgan eng nozik hislar,jumladan,sevgi,ishonch,umid,ayriliq o'zining badiiy tasvirini topadi va shu tasvir asarni o'qiyotgan har bir shaxs ruhiyatiga,dunyoqarashiga,qalbiga ta'sir o'tkazishga qodir."Suzayapman,muhabbat,olis" she'ri shoir ijodida o'zining badiiy-falsafiyliigi bilan alohida o'rin egallaydigan asar bo'lib ,bu she'rda muhabbatning ilohiy mohiyati,ayriliqning ruhiy og'riqlari, va inson qalbidagi ruhiy sayohat o'z aksini topadi.

Kalit so'zlar: lirizm,lirik qahramon,izlanish,ruhiy safar,tabiat manzaralari,ruhiy ozodlik,metafora.

Aleksandr Arkadevich Faynberg qalamiga mansub "Suzayapman,muhabbat,olis" she'ri teran falsafiy ruhga ega sara asarlardan biridir. Unda muhabbat va ayriliq mavzusida so'z boradi.Shoir o'z hislarini turli adabiy vositalar,nozik ifodalar orqali yurakka yaqin qilib qog'ozga tushuradi.She'ning ilk misralaridan boshlaboq lirik qahramon muhabbat nomidan suzayotgan,ruhiy jihatdan yo'lga chiqqan inson sifatida gavdalantiriladi:

Suzayapman,muhabbat,olis

Gulxanlardan o'rlaydi tutun.

Sendan bo'sa oladi yulduz,

Bu qirg'oqdan ketaman bugun.

Bu nuqtada foydalanilgan "suzayapman" so'zi harakat,izlanish,ruhiy safar timsolidir."Muhabbat" jismoniy his emas,hayot ma'nosini topish yo'lidir."Gulxan" bu yo'ldagi ehtiros,shijoat ramzi,tutun esa o'tmishda qolgan muhabbat ramzi.

She'r davomida lirik qahramonning muhabbat va ayriliq o'rtasidagi ziddiyatli kurashi ifodalangan:

Bu qirg'oqdan ketaman bugun.

Qirg'oqqa tashlayman langarcho'p.

Bu misrada o'tgan hayot yo'lidan uzilish, yangi yo'l sari og'ir lekin zaruriy qadam qo'yish sahnasi bayon etilgan."Langarcho'pni tashlash" o'sha tanish,xavfsiz sohilni tashlab,o'zini hayot oqimiga tashlash demakdir.

Faynberg bu she'rda tabiat manzaralarini lirik kechinma bilan uyg'unlashtiradi:

To'lqinlari yugurik to'p-to'p

Daryo tubi abadiy g'uluv.

Daryo-hayot oqimi,taqdir ramzidir."Abadiy g'uluv" inson qalbining tub-tubida yashirin iztirob manzilini ifodalovchi metaforadir.

To'lqinlar ham ayriliq hissin

Sezgan kabi bir-birin ushlar.

Bu yerda tabiatning har bir bo'lagi lirik qahramon bilan birga g'am chekmoqda,azoblanmoqda.

Ijodkor she'rda alliteratsiya,metafora,epitet kabi adabiy vositalardan salmoqli foydalangan."Moviy suv","to'lqinlari yugurik" -ruhiy tashvish,umidni

bildirsa, "bulutlarning ortida qirg'oq"-ruhiy tinchlik, kechirim, umidli yakunni ifodalaydi. "Yulduz bo'sa oladi" sevgi va abadiyatni birlashtiruvchi metafora.

Xulosa qilib aytganda, Faynberg «Suzayapman, muhabbat, olis» she'rida muhabbat, ayriliq, kechirim kabi mavzularni o'zaro uyg'unlikda tasvirlaydi. Bu she'r orqali u o'quvchini hayotdagi eng qiyin damlarda ham qalbdagi soflikni, muhabbatni yo'qotmaslikka da'vat etadi.

Foydalanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg A.A. Tanlangan asarlar.- Toshkent: G'zfur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
2. Rahmonov S. XX asr o'zbek lirikasi rivoji.- Toshkent: Universiteti, 2010.
3. Karimov N. Zamonaviy o'zbek she'riyati tahlillari.- toshkent: Fan, 2003.
4. Xudoyberdiyev H. Falsafiy lirika va ruhiy kechinmalar.- Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
5. Ziyouz.com